

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIG  
AL XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI  
301-GURUH TALABASI DO'SANOVA DILFUZANING  
«MANBASHUNOSLIK»  
FANIDAN**

# **KURS ISHI**

**Mavzu: XITOY SALNOMALARI. QADIMGI  
TURKIY MANBALAR**

**Topshirdi:**

**Do'sonova D**

**Qabul qildi:**

**Matyaqubova M.**

**Urganch 2012**

# **MAVZU: XITOIY SALNOMALARI. QADIMGI TURKIY MANBALAR**

## **REJA**

### **I. KIRISH.**

### **II. ASOSIY QISM:**

- 1. Xitoy manbashunoslari asarlarida O'rta Osiyo*
- 2. Yenisey bitiklari.**
- 3. Mo'g'ulistonda topilgan bitiklar.**

### **III. XULOSA**

### **IV FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## KIRISH

V—VI asrlarda O'zbekiston tarixi Eftaliylar va Eftaliylar davlati tarixi bilan bog'liqdir. Tarixiy manbalar, shuningdek, arxeologik qazishlar bergan ma'lumotlarga qaraganda Eftaliylarsaklar va masagetlarning avlodlaridir.

Eftaliylar juda katta hududda o'z hukmronliklarini o'matdilar. Ularning davlatiga Sharqiy Turkistondan Kaspiy bo'ylarigacha bo'lgan yerlar qarar edi. Eftaliylar milodning 457-yilida Chag'aniyon, Toxariston va Badaxshonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar. Eron shohi sasoniy Firuz (459—484) Eftaliylarga qarshi uch bor qo'shin tortti, lekin uning barcha yurishlari mag'lubiyat bilan yakunlandi. Buning ustiga Eron Eftaliylarga o'lpon to'lab turishga majbur bo'ldi. Shundan keyin Eftaliylar Marv va Kobulni, oradan ko'p vaqt o'tmay, Sharqiy Turkistonni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldilar.

Eftaliylar Turon, Eronning sharqiy tumanlari, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston hamda Sharqiy Turkiston ustidan hukm yurgizdilar.

563—567-yillari turk xoqoni Istemi (Dizovul) Eron hukmdorlari bilan ittifoq tuzib, Eftaliylar davlatiga zarba berdi va ularga qarashli yerlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada Turk xoqonligi Amudaryo va Orol dengizigacha cho'zilgan o'lkalar ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi. VI asrning uchinchi choragida turklar Shimoliy Xitoyda joylashgan Chjou va Si davlatlarini ham bo'ysundirdilar. 576-yili Bosporni (Kerch) egalladilar, 581-yili esa Xurosonni qamal qildilar.

VI asr o'rtalariga borib Turk xoqonligi zaminida ilk katta yurish egaligi munosabatlari shakllana boshladi. Shuning bilan bir qatorda o'zaro urushlar kuchaydi va bundan Suy imperiyasi (581—618) hukmdorlari ustalik bilan foydalandilar. Oqibatda Turk xoqonligi ikki qismga — Sharqiy va G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketdi.

## ХИТОЙ МАНБАШУНОСЛАРИ

Хитой манбалари ҳақида сўз бошлашдан олдин шуни алоҳида қайд этиб ўтиш керакки, улар ҳам хитой ҳукмдорларининг мақсад ва манфаатларини кўзлаб ёзилган, бошқа халқларнинг тарихи кўп ҳолларда бир тарафлама ёритилган. Лекин хитой манбаларида бўлиб ўтган воқеаларнинг вақти ва ўрни аниқ кўрсатилади, бирига қарши турган қўшинларнинг умумий сони аниқ кўрсатилади.

Қадимий Ўзбекистоннинг узок ўтмишдаги ижтимоий-сиёсий тарихини ўрганишда қуйидаги хитой манбалари муҳим роль ўйнайди.

### ШИ ЦЗИ

“Ши Цзи” (“Тарихий эсдаликлар”) хитой тарихшуносларининг отаси ҳисобланадиган Сима Цяньнинг 130 бобдан иборат асаридир.

Сима Цянь –(тахминан милоддан аввалги 145 ёки 135-86-йиллар) Лунминь (ҳозирги Шэньси вилояти) шаҳрида сарой тарихчиси Сима Тхан оиласида туғилган, мамлакат бўйлаб кўп саёҳат қилган, отаси вафот этгандан (милоддан аввалги 108 йили) кейин унинг ўрнига сарой тарихчиси сифатида қабул қилинган. Милоддан аввалги 98 йили императорга қарши чиқиб, саркарда Ли Линни ҳимоя қилгани учун қаттиқ жазога тортилиб (бичилган) саройдан қувиб юборилган. Лекин у руҳий тушқинликка тушиб

қолмади ва бўлажак тарихий китоби устидаги ишни давом эттирди. Кўп вақт ўтмай Сима Цянь яна саройга таклиф этилди ва император Бош маҳкамаси бошлиғи этиб тайинланади, китобини ёзиб тамомлашга шароит яратиб берилди.

Унинг “Ши Цзи” номли асарида Хитойнинг қадимий замонлардан то милоддан аввалги 1 аср бошларига қадар ўтган тарих баён этилган. Асарда Ўзбекистон, унинг 123 бобида хусусан Фарғона ва унинг қадимий халқи, ҳаёти ҳақидаги қимматли маълумотлар мавжуд.

“Ши Цзи”нинг тўла матни олти жилд қилиб 1959 йили Пекинда эълон этилган, рус тилига таржима этилиб (И.Я.Бичурин, Л.С.Васильев, Л.С.Переломов, Ю.Л.Кроль ва бошқалар) 1972, 1975, 1984, 1986 йиллари чоп этилган. Э.Шаванн (1865-1905) томонидан француз тилига таржима қилиниб, 1895-1918 йиллари 5 жилдда босмадан чиққан.

### **“ЦЯНЬ ХАНЬ ШУ”**

“Цянь Хань шу” (“Аввалги Хань сулоласининг тарихи”) йирик тарихчи олим Бянь Гу (39-92) асаридир. Тарихчи Аньлин (Шэнси вилояти) шаҳрида Ғарбий Хань сулоласи (милоддан аввалги 206 – милоднинг 220 й.) хизматида турган йирик мансабдор ва таризшунос оиласида туғилган, 47-55 йиллари Лоянда олий таълим олган, 58-82 йиллари ўз асарини ёзган.

“Цянь Хань шу”нинг 95 бобида Ўзбекистон (айниқса, кангли, юэчжи ва усунлар ҳақида) ва Шарқий Туркистоннинг қадимий

тарихи, халқи ва унинг ҳаёти ҳақида кўп муҳим маълумотларни учратамиз.

“Цянь Хань шу” 1962 йили Пекинда 12 жилдда нашр қилинган. Инглизча таржимаси (Г.Дубс, Балтимор, 1938-1944-йй.) ҳам бор.

### **“ХОУ ХАНЬ ШУ”**

“Хоу Хань шу” (“Кейинги Хань сулоласи тарихи”) тарихчи Фань Хуа (398-445 йй.) асари. Олим аввалги Хань сулоласи (25-220-йй.)га хизмат қилган. Кичик давлат лавозимида турган ва 424 йили вилоят ҳокимлигига кўтарилган. Давлатга қарши исёнда қатнашганликда айбланиб қатл этилган.

“Хоу Хань шу” Хитойнинг аввалги Хань сулоласи давридаги тарихни ўз ичига олган катта асар (130 бобдан иборат. Унда Ўзбекистон, Шарқий Туркистон ва Жунғориянинг 25-221-йилларорасидаги тарихи ҳақида диққатга сазовор маълумотлар бор.

### **“БЭЙ ШУ”**

“Бэй шу” (“Шимолий сулолалар тарихи”) 100 бобли асар бўлиб, Тань сулоласи (618-907 йй.) даврида яшаган йирик тарихчи Ли Янь-шоу (тахм.595-678-йй.) қаламига мансуб. Унда Шимолий Хитойда ҳукмронлик Вэй (386-535-йй.), Ци (550-577-йй.), Чжоу (557-581-йй.) сулоласи ҳукмронлиги, яъни 386-581 йиллар тарихи баён этилган.

Асарда Ўзбекистон, хусусан Хоразм ҳамда Шарқий Туркистон ҳақида қимматли маълумотларни учратамиз.

“Бэй шу”нинг матни 1958 йили Шанхайда чоп этилган.

## **СУЙ ШУ**

“Суй шу” (“Суй хонадонининг тарихи”) Хитой тарихчилари жамоаси тарафидан ёзилган асар. Уни ёзишда Вэй Чжен (580-643 йй.) –Тань сулоласи даврида ўтган тарихчи, император Чжен-Гуань (626-650) даврида унинг ўғли ва тожу тахт ворисига тарбиячи бўлган, Янь Ши-Гу ҳамда Кхун Ин-да билан биргаликда иштирок этиб, асарда Хитойнинг Суй сулоласи даврида, У-У1 асрлардаги ижтимоий-сиёсий тарихи 85 бобда баён этилган. Китобнинг 55 боби 637 йили ёзиб тамомланган. Қолган 30 бобига эса 20 йил вақт кетган.

Асарда императорнинг иқтисодий сиёсати, қўшиннинг тузилиши, мамлакатнинг аҳволи, халқнинг урф-одатлари ҳақида маълумотлар келтирилган. Унинг 83-бобида Ўзбекистон ва Шарқий Туркистон ҳақида ҳам диққатга сазовор маълумотларни учратамиз. Кўп жилдли “Сулолалар тарихи” таркибида 9 жилд сифатида 1958 йили Шанхайда босилган.

## **“ЦЗЮ ТАНЬ ШУ” ВА “СИНЬ ТАНЬ ШУ”**

“Цзю Тань шу” (“Тань сулоласининг эски тарихи”) император Жень-Цзун (1023-1063-йй.)нинг топшириғи билан 940-945 йиллари ёзилган.

Оуян Сю (1007-1072-йй.) ва Сунь Ци (998-1061 йй.) 960-1279 йиллари хукмронлик қилган Сунь (Жанубий ва Шимолий Хитой) сулоласи тарихчилари 1043-1060-йиллари шу сулоланинг янги тарихи “Синь Тань шу” (“Тань сулоласининг янги тарихи”) ёзганлар. Ҳар иккала асар ҳам ўзига хос афзалликларига эга бўлиб, маълум даражада бир-бирини тўлдиради.

XV асрда тарихчи Шэнь Бин-чжень ҳар иккала тарихни бир-бирига боғлаб, унга “Синь цзю Тань шу хечао” (“Тань сулоласининг бир-бири билан қўшилган янги ҳамда эски тарихи”) деб ном қўйди. Асарда 618-907- йиллар влкелари баён этилган.

“Синь Тань шу”да Ўзбекистон жануби, Афғонистон, Эрон ҳамда Шарқий Туркистон ҳақида маълумотлар учрайди.

1958 йили кўп жилдли “Сулолалар тарихи”нинг 12 жилди сифатида Шайхайда чоп этилган.

### **III YENISEY BITIKLARI**

Qadimgi Turk manbalari orasida XVII asrda Sibir hamda Mo`g`ulistonda, Oltoy hamda O`zbekistonda topilgan runiy bitiklar alohida qiymatga ega. Bu yozuvlarning yetti guruhi — Lena — Baykalbo`yi bitiklari, Yenisey, Mo`g`uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O`rta Osiyo bitiklari ma'lum. Bu bitiklar O`zbekiston xalqlarining arablar istilosi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o`rganishga yordam beradi.



Yenisey bitiklari mashhur rus xaritashunos olimi S.U.Remezov (taxminan 1642— 1720-yy.) tarafidan XVII asr oxirida Yenisey havzasi(hozirgi Xakas avtonom viloyatiga qaraydi) topilgan. Undan keyin bu haqda shvetsiyalik harbiy asir F.Stralenberg (Tabbert) ma'lumot beradi. U Yenisey havzasidagi qabrtoshlardan toshga o'yib yozilgan notanish xatlarni topgan. Bu yozuv haqidagi ma'lumotlar birinchi marta o'tgan asrning birinchi choragida "Сибирский вестник" jurnalida e'lon qilindi. 1889-yili fin olimlari Yeniseydan topilgan yozma yodgorliklar xaritasini tuzdilar.

Bular orasida XVII asrda Sibir hamda Mo'g'ulistonda, Oltoy hamda O'rta Osiyo, O'zbekistonda topilgan runiy bitiklar alohida himmatga ega. Bu yozuvlarning hozir yangi guruhi: Lena — Baykal bo'yi bitiklari, Enisey, Mo'g'uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo bitiklari ma'lum. Bu bitiklar O'rta Osiyo, shuningdek, O'zbekiston xalqlarining arablar istilosi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o'rganishga yordam beradi.

Enisey bitiklari mashhur rus xaritashunos olimi S.U. Remezov (taxminan 1642—1720-yy.) tarafidan XVII asr oxirida Enisey havzasida (hozirgi Xakas avtonom viloyatiga haraydi) topilgan. Undan keyin bu haqda shvetsiyalik harbiy asir F. Stralenberg (Tabbert) ma'lumot beradi. U Enisey havzasidagi habrlardan toshga o'yib yozilgan notanish xatlarni topgan. Bu yozuv haqidagi ma'lumotlar birinchi marta o'tgan asrning birinchi choragida «Sibirskiy vestnik» jurnalida e'lon qilindi. 1889 yili fin olimlari Eniseydan topilgan yozma yodgorliklar xaritasini tuzdilar.

Mo'g'ulistondan topilgan bitiklar orasida To'nyuquq, Kul tegin, Bilga xoqon va Ongin muhim o'rin tutadilar.

To'nyuquq bitigi Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqda, Bain Sokto manzilida joylashgan va ikkinchi turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqonning (681—691) maslahatchisi, sarkarda To'nyuquqqa atalgan va 712-716-yilari yozilgan. 1897-yili rus olimi D.A.Klemens (1848-1914) va uning xotini Yelizaveta Klemenslar tarafidali ochilgan, V.V.Radlov (1899), VTomsen (1922), X.Sheder (1924), D.Ross (1930) hamda G.Aydarov (1971) tarafidan yaxshi o'rganiJgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan.

Obida A.Abdurahmonov hamda A.Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan (1982).

Kul tegin bitigi Bilga xoqonning (716—734) inisi Kul tegin (731-yili vafot etgan) sharafiga yozilgan. Mo'g'ulistonning Kosho Saydan vodiysida Ko'kshin o'rxun daryosi bo'yidan rus arxeolog va etnograf olimi N.M.Yadrinsev (1842-1894) tomonidan 1889-yili topilgan.

Bitik V.V.Radlov (1891), A.Xeykel (1892), VTomsen (1896), P.M.Melioranskiy (1897), X.Sheder(1924), S.E.Malov(1951), G.Aydarov (1971) lar tomonidan nemischa, fransuzcha, ruscha tarjimalarda chop etilgan. A.Abdurahmonov va A.Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qilingan qisqacha tarjimasi (1982) ham bor.

Bilgaxoqon bitigi Kul tegin bitigi topilganjoydan 1 kmjanubi-g'arbda — Ko'kshin o'rxun daryosi havzasida topilgan. Bu obida 735-yili bitilgan. Uni V.V.Radlov, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy va V.Tomsen tomonidan o'rganilgan va chop etilgan.

Ongin bitigi Mo'g'ulistonning Kosho Saydan vodiysidan topilgan va kimga atalganligi aniq ma'lum emas. Ba'zi fikrlarga qaraganda, yuqorida tilga olingan Eltarish xoqon va uning xotini Elbiyga xotun sharafiga qo'yilgan (735-y.), boshqa fikrga ko'ra Qopag'on xoqonga (691—716-yy.), yana bir ma'lumotga (J.Klosson) qaraganda Bilga xoqonning harbiyboshliqlaridan Alp Eletmish (taxminan 731-yilda o'lgan) sharafiga qo'yilgan.

Obida 1892-yili V.V.Radlov tarafidan (estompaji) va 1957-yili J.Kloson tomonidan (inglizcha tarjimasi va tadqiqot bilan) nashr qilingan.

Bulardan tashqari, Qarabalsag'un shahri (Ulan-Batordan taxminan 400 km janubda joylashgan qadimiy shahar) xarobalaridan, Xayto Tamir, Cho'yren, Beyshin-Udzur, Bayan—Xo'ngur va boshqa joylardan topilgan yozuvlar ham muhimdir.

Oltoydan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi daryolari, Qo'shog'och hamdatog'li nohiyalaridan topilgan bitiklarni aytib o'tish mumkin. Bular o'rxun-Yenisey bitiklaridan farqli o'laroq, etnografik materialga boydir. Oltoydan topilgan

yozuvlar P.M.Melioranskiy, E.R.Tenishev, A.K.Borovkov, K.Seydakmatov, V.M.Nadelyayev hamda D.D.Vasilyev tomonidan e'lon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vohasidagi g'orlarga joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida o'rin tutadi. Bitiklar V.Tomsen tarafidan chop qilingan.

Qozog'iston hamda Qirg'izistonda topilgan bitiklar (asrimizning 60— 70-yillarida topilgan) hali chuqur o'rganilmagan. Bular orasida Talas vohasidan (Ayritom, Teraksoy, Qulonsoy, Toldiqo'rg'on, Urjor, Sirdaryo, Ila, Olma Ota, Tolg'ar, Tinbas va hokazo) topilgan bitiklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qozog'iston hamda Qirg'iziston hududidan topilgan bitiklarning ba'zilari S.Sodiqov, M.E.Masson, A.N.Bernshtam, A.S.Omanjlov, G.Musaboyev, Ch. Jumag'ulov hamda G.Karag'ulovalar tomonidan e'lon qilingan.

Qadimiy turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg'ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Quvasoy, o'sh, o'zgand, Kofirnihon, shuningdek So'g'ddan ham topilgan va A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, V.A.Bulatova, E.R.Tenishev, Yu.A.Zadneprovskiy tarafidan o'rganilgan.

Umuman, qadimiy turk runik yozuvlari xalqimiz tarixini yoritishda juda qimmatli manbadir. Mo'g'ulistondan topilgan bitiklar. Bular orasida To'nyuhuh, Kul tegin, Bilga xoqon va Ongin muhim o'rin tutadilar.

To'nyuhuh bitigi Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqda, Bainsokgo manzilida joylashgan va ikkinchi turk xohonligining asoschisi Eltarish xohon (681—691-yy.) ning maslahatchisi sarkarda To'nyuhuhga atalgan; 712—716-yillar orasida yozilgan. 1897-yili rus olimi D.A. Klements (1848— 1914) va uning xotini Elizaveta Klementslar tarafidan ochilgan; V.V. Radlov (1899 y.), V. Tomsen (1922 y.), X. She-der (1924 y.), D. Ross (1930 y.) hamda G. Aydarov (1971) tarafidan yaxshi o'rganilgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan. Obida h.A. Abdurahmonov hamda A. Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan (1982 y.).

Kul tegin bitigi. Bilga xohonning (716—734-yy.) inisi Kul tegin (731-yili vafot etgan) sharafiga yozilgan. Mo`g`ulistonning Kosho Saydan vodiysida Ko`kshin O`rxun daryosi bo`yidan rus arxeolog va etnograf olimi N.M. Yadrintsev (1842—1894-yy.) tomonidan 1889 yili topilgan.

Bitik V.V. Radlov (1891 y.) A. Xeykel (1892 y.) V. Tomsen (1896 y.), P.M. Melioranskiy (1897 y.), X. Sheder (1924 y.), S.E. Malov (1951 y.), G. Aydarov (1971 y.) lar tomoni-dan nemischa, frantsuzcha, ruscha tarjimalarda chop etilgan. h. A. Abduraxmonov va A. Rustamov tarafidan qilingan his-hacha o`zbekcha tarjimasi (1982 y.) ham bor.

Bilga xohon bitigi. Yuhorida aytilgan Kul tegan bitigidan 1 km janubiharbda - Ko`kshin O`rxun daryosi havza-sidan topilgan. Obida 735-yili bitilgan.

V.V. Radlov, S.E. Malov, P.M. Melioranskiy va V. Tomsen tomonidan o`rganilgan va chop qilingan.

Ongin bitigi. Mo`hulistonning Kosho Saydan vodiysidan topilgan. Kimga atalganligi aniq ma'lum emas. Ba'zi fikrlarga qaraganda, yuqorida tilga olingan El-tarish xoqon va uning xotini Elbiyga xotun sharafiga qo`yilgan (735 y.); boshqa fikrga ko`ra qopag`on xoqonga (691—716- yy.), yana boshqa bir ma'lumotga (J. Kloson) qaraganda Bilga xoqonning harbiy boshliqlaridan Alp Eletmish (taxminan 731 yilda o`lgan) sharafiga qo`yilgan.

Obida 1892 yili V.V. Radlov tarafidan (estompaji) pa 1957 yili J. Kloson tomonidan (inglizcha tarjimasi va tadhihot bilan) nashr qilingan.

Bundan tashqari, qorabalsahun shaxri (Ulan-Batordan gaxminan 400 km janubda joylashgan qadimiy shahar) xarobalaridan, Xoyto Tamir, Cho`yren, Beyshin-Udzur, Bayan-Xo`ngur va boshqa joylardan topilgan yozuvlar ham muhimdir.

Oltoydan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi daryolari, qo`shoqoch hamda tog`li nohiyalardan topilgan bitiklarni aytib o`tish mumkin. Bular, O`rxun-Enisey bitiklaridan farhli o`laroq, etnografik materialga boydir. Oltoydan topilgan yozuvlar P.M. Melioranskiy, E.R. Tenishev, A.K. Borovkov, K. Seydakmatov, V.M. Nadelyaev hamda D.D. Vasilev tomonidan e'lon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vohasidagi g'orlarda joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida o'rin tutadi. Bitiklar asosan V. Tomsen tarafidan chop qilingan.

Qozog'iston hamda Qirg'izistondan topilgan bitiklar (asrimizning 60—70-yillarida topilgan) hali chuqur o'rganilmagan. Bular orasida Talas vohasidan (Ayritom, Teraksoy, qulonsoy, Toldiqo'rqon, Urjor, Sirdaryo, Ila, Olma Ota, Tolqar, Tinbas va hokazo) topilgan bitiklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qozog'iston hamda Qirg'iziston hududidan topilgan bitiklarning ba'zilari S. Sodihov, M.E. Masson, A.N. Bernshtam, A.S. Omanjlov, G. Musaboev, Ch. Jumaqulov hamda G. Karaqulovlar tomonidan e'lon qilingan.


Qadimiy turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlar-ga yozilgan) Farg'ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Quvasoy, O'sh, O'zgan, Kofirniqon, shuningdek So'hddan ham topilgan va A.N. Bernshtam, B.A. Litvinskiy, V.A. Bulatova, E.R. Tenishev, Yu.A. Zadneprovskiy tarafidan o'rganilgan.



XVII asr oxirida topilgan O`rxun-Enisey bitigi.



# BUYUK TURK XOQONLIGI







## MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT

Qadim turk manbalari fanda runik yoki ko'kturk bitiklari deb yuritiladi. Ularning aksariyati XVII asrda Sibir, Mo'ng'uliston, Oltoy va o'rta Osiyoda topilgan. Ular orasiga Mo'ng'ulistonda topilgan To'nyuquq, Qultegin, Bilga xoqon va Ongin bitiklari o'rta Osiyo aholisi tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Masalan, Qultegin bitigi VII asming birinchi yarmida qabr toshiga o'yib yozilgan. Qabr toshining balandligi 3 m 15 sm, kengligi 1 m 24 sm, qalinligi 41 sm. Bitik 63 satrdan iborat. Jhi yozma manbada Turk xoqonligining asoschilari to'g'risida quyidagi jummalarni o'qish mumkin: «Yuqorida ko'k osmon, pastda qora yer yaratilganda, ikkinchisining o'rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan bobom Bumin xoqon, Istemi xoqon bo'lib o'rtnashganlar. Ular taxtga o'rtnashib turk xalqining davlatini, rasm-rusumini tutib turganlar».

Bitikda BilgajcQaftn nomidan avlodlariga yo'llangan quyidagi pand-nasihati ayniqsa diqqatga sazovordir: «So'zimni tugul eshitgil, keyindagi inim, urug'im— xalqim... bu so'zlarni yaxshilab eshit, diqqat qilib tingla... Tabg'och xalqining so'zi shirin, ipak kiyimi nafls... ekan. Shirin so'z, nafls ipagi bilan aldab, yirik xalqni shu holda yaqinlashtirar ekan... Yaxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi, yoping'ichigacha qo'ymas ekan... Shirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi o'lding».

Bitikda turli davrlardagi turk xoqonlariga haqqoniy baho beriladi. Kimlar tadbirkorlik bilan davlatni boshqargani, kimdir xalqning boshini berk ko'chaga olib kirib qo'ygani, natijada turk davlatini inqirozga olib kelgani... Hukmdorlik qilgan layoqatsiz xoqonlar xalqning boshiga ko'p kulfatlar keltirgani bayon qilinadi. Bunday falokatlardan turklarni Eliarish xoqon qutqargani, bu borada Bilga va Kultegin xizmatlari, ayniqsa Kultegin jasorati va qahramonligi to'g'risida bayon etiladi.

Bitiklar, shubhasiz turkiy xalqlarning qadimgi tarixini o'rganishda nodir yozma yodgorlik bo'lib, unda avlodlarga qarata aytilgan vasiyatlar ayniqsa

diqqatga sazovordir. Undagi g'oyalar - tarix saboqlaridir, hozirgi kunimiz, xususan ma'naviy hayotimiz uchun ham o'ta muhimdir.

### **Turkiy xoqonlik hukmronligi davrida O'rta Osiyo**

Turon davlatchiligi tarixida Turkiy xoqonlik davlati davri katta va muhim o'rinni egallaydi. Turkiy xoqonlik xususidagi ma'lumotlar etarli bo'lsada, lekin ularning ko'pchiligi bir-biriga qarama-qarshi va aniq ma'lumotlar bermaydi. Birinchi navbatda VII-VIII asrlarda to'plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bular epigrafik yodgorliklar — O'rxun-Enisey runiy yozuvlari, Xitoyning «Tan xonadoni tarixi» (UP-1X asrlar) tarixiy manbasi, VI asr oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efesskiylarning tarixiy asarlaridir. Shuningdek, bu to'g'risidagi ma'lumotlar arab tarixchilari at-Tabariy, Denovariy (1X-X asr) o'lkamiz fuzalolaridan Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy (X asr) va boshqalar asarlarida ham uchraydi.

«Alpomish», «Go'ro'g'li», «Manas», «Dada Qo'rqut» kabi umumturkiy xalq dostonlari, O'rta asrlardagi Mahmud Qoshqariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix to'g'risida turli himmatli ma'lumotlar keltiriladi. Yaqindagina, 1999 yili Alpomishning 1000 yilligi Respublikamizda keng nishonlanib, Termizda qahramon Alpomishga mahoratli haykal ham o'rnatildi.

Xitoy manbalari, turkiylarning eramizning 92-Yilida Oltoy etaklariga kelib o'rtnashganligi va bu erdagi jujanlardan ruxsat olib, ular uchun temir qazib chiqarishni boshlaganliklari xaqida ma'lumot beradi. Bu urug' Ashina urug'i nomi bilan avval boshda atalib kelingan. Xitoylar Ashin qabilasini «Tu-yuo», deb xitoycha «Ashina», deb ham yuritganlar. P. Pelo bu so'zni «Turkyut» (ya'ni turkiylar), deb izohlagan. «Turk» atamasi kuchli, baquvvat degan ma'noni anglatgan. Ashina xitoycha «bo'ri», degan ma'noni anglatgan. Bo'ri xitoyliklarda «shono», «gino» deb ham yuritilgan. «A» qo'shimchasi Xitoyda hurmat belgisi, deb yuritilgan. Boshqa bir fikrga ko'ra esa turk so'zi Oltoy tog'lariga nisbat qilib olinib «dubulg'a» degan ma'noni bergan, deb ham aytiladi. Avval bir urug'a

berilgan «turk» atamasi keyinchalik ularga yaqin turgan barcha qabila-urug'larga ham umumiy nom sifatida ishlatilib ketiladi.

Ashina urug'idan bo'lgan Asan (Asyan), Shad, Tuu (460-545) lar turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o'g'li Bumin (bu turkcha nomi, xitoycha Tumin) o'ziga tele qabilasini bo'ysundiradi. Endilikda ancha mustahkamlangan bu qabilalar ittifoqi o'zlari qaram bo'lib turgan jujanlardan xalos bo'lish yo'lini qidirishadi. 545 yil G'arbiy Vey imperatori Vandi Ashin urug'i boshlig'i Buminga do'stona munosabat o'rnatish uchun elchi yuboradi. G'arbiy Vey davlatining asoschilari asli turkiy qabilalardan bo'lib (386-558) Xitoyning shimolida o'z davlatlarini barpo qilib, butunlay xitoylashib ketgan edilar. Turkiylar ularni To'ba yoki Tabg'ach davlati deb yuritganlar. Manbalarda berilishicha, Bumin Vey davlati bilan ittifoqsosh bo'lib, ulardan jujanlarga qarshi kurashda yordam olishi mumkinligiga umid qiladi. Bumin jujan xoni Aynag'ayga uning qiziga uylanmoqligi to'g'risida sovchi yuboradi. Bu taklif Bumin tomonidan ataylab nizo chiqishi uchun qilingan bo'lib, Aynag'ay Buminga: «ha, temir erituvchim, menga bunday taklifni kiritishga qanday jur'at etding?» deb javob beradi. Bu holat ikki o'rtada jang boshlanishiga bir bahona bo'ldi. Bumin shu javobdan so'ng kurashni boshlab yuboradi va 551 yili Markaziy Osiyodagi eng kuchli bo'lgan jujanlar xonini mag'lub etadi. O'sha yili Bumin yangi davlat — Turkiy xoqonlikka (551-744) asos soladi.

Bumin Ili daryosi bo'yida hukmdor deb e'lon qilinib, «ilixon» degan unvonni oladi. Turkiylar hukmdori o'zini xoqon (turkcha — qag'an), deb yurita boshlaydi. Oltoydagi O'tukan shahri yangi Ko'k turkiy xoqonlikning poytaxti qilib belgilanadi. Bumin o'z ukasi Istemi (Istemi — turkcha, Sedimi — xitoycha, Sinjibu — arabcha, Stembi-xagan — yunoncha) birinchi sarkarda, davlatning birinchi amaldori unvoniga to'g'ri keluvchi «Yabg'u» (bahodir) unvonini berib, u bilan birgalikda o'z davlatini kengaytirish payiga tushdi. Istemi ko'proq harbiy yo'nalishga boshchilik qilib tez orada Sharqiy Turkistondagi nushibi, turkash, duli qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi. 552 yilning oxirida Bumin xokrn vafot etdi. Shundan so'ng taxtga Dyangu qora Issiq xon o'tiradi. U jujanlarni qayta bosh

ko'targanligiga qarshi kurashib, natijada ularning rahbari Din o'z qo'shini bilan tor-mor keltiriladi. Tez orada Qora Issiq xon ham vafot etadi. Shundan so'ng uning ukasi Muqan xon «Kushu» unvoni bilan (554-576) taxtga o'tiradi. Muqan xon hukmronligi davri Turkiy xoqonlikni eng qudratli pallaga olib kirdi. 554 yil Muqan Sharqqa yurish qilib Uzoq Sharq o'lkalarini o'ziga bo'ysundirdi va Tinch okean qirg'oklariga chiqadi. Shundan so'ng u O'rxun, To'g'la, Selenga daryolari bo'ylaridagi qabilalarni, Enisey daryosi bo'ylaridagi qirg'izlarni, Baykal atroflaridagi uyg'urlarni o'ziga bo'ysundiradi.

Muqan xoqon Eftalitlar davlatini tugatish uchun 554 yil Eron shohi Xusrav I Anushervonga elchi jo'natadi. Firdavsiyning yozishicha, Eftalitlar hukmdori Gatifar turkiylar va Eron o'rtasidagi ittifoqchilik yuzaga kelmasligi uchun elchilarni yo'lda o'ldiradi. Faqatgina bir kishi xoqon huzuriga etib boradi xolos. Eron ittifoqqa rozi bo'ladi. Muqan xoqon ittifoqchilik iplarini mustahkamlash maqsadida Istemi yabg'uning qizi Asna bekani Xusrav I Anushervonga turmushga beradi. 555 yildayoq Istemi Orol dengizgacha bo'lgan erlarni egallagan edi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu oddiy istilo bo'lmay balki, yangi turkiy qabilalarning Sharqiy Turkistron shimoli va O'rta Osiyoning sharqidagi ulkan erlarga kelib o'rinishi edi. Kultegin bitigida qayd etilishicha «ular (ya'ni, Istemi va Muqanxon) o'z xalqlarini Temir Qopqagacha joylashtirdilar» (Sug'd va Baqtriya o'rtasidagi chegarada joylashgan Temkr darvra, hozirgi Boysun tumani hududida).

558 yili turkiylar Ural va Volga bo'ylarini zabt etib Shimoliy Kavkazdagi ko'chmanchi o'varlar bilan to'qnashadi. Turkiylar eftalitlar va o'varlarga qarshi

kurashishda Vizantiya va Eron bilan do'stona aloqani mustahkamlashga harakat qila boshlaydilar. Vaziyatdan foydalangan Eron eftalitlardan Tohariston, Chag'oniyon, Qobul atrofidagi erlarni tortib oldi. O'varlarga qarshi harakatda turkiylar, ularga yordam berib turgan Vizantiyani bu yo'ldan qaytarmoqlikka harakat qilishadi. Shu maqsadda Turkiy xoqonlik 563 yil Vizantiyaga nushibi qabilasi rahbari Esxilni elchi qilib jo'natadi.

563 yildan eftalitlarga qarshiikki tomonlama, shimoldan turkiylar, janubdan sosoniylar hujumi boshlanadi. Turkiylar Shosh vodiysiga bostirib kiradilar va tez

orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. Eftalitlar Xuttalon, Termiz, Balx, Amul, Zamm shaharlaridan yordam olib Buxoro yaqinida katta jangga tayyorgarlik ko`radilar. Sakkiz kunlik shiddatli jangda eftalitlar turkiylardan engiladilar. Tabariyning yozishicha, Vars deb yuritilgan eftalitlar shohini Istemi o`ldiradi va butun boyliklarini o`z ho`liga oladi. Eftalitlar bilan kurash taxminan 563-567 yillar oralig`ida kechadi.

Ittifoqchilarning har biri tezlik bilan harakat qilib, iloji boricha eftalitlarning erlarini ko`proq o`z qo`llariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy soqiligacha bo`lgan erlar Eron, uning shimoliy soqillaridan Kaspiygacha bo`lgan erlar turkiylar ho`liga o`tadi. Birmuncha vaqt eftalitlarning qolgan qutgani Zarafshon vohasida yashab turkiylarga soliq to`lab turadi. Eron turkiylar ho`liga ko`pgina muhimahamiyatga ega bo`lgan xdaudlar o`tib qolganligidan o`z noroziligini bidtsiradi.

Istemi yabg`u Eron bilan munosabatlar keskinlashib ketsa, uning oldini olish maqsadida Vizantiya bilan yaqinlashish siyosatini qo`llamoqchi bo`ladi. 568 yil Maniax boshchiligidagi elchilar guruh`i Vizantiyaga jo`nab ketdi. Ular Kavkaz orqali Konstantinopolga etib keldilar. Maniax katta tantana bilan qabul qilinib, imperator Yustin II ga sovg`a salomlar va xoqonning nomasini topshirdi. (Vizantiyaliklar bu nomani skiflar yorlig`i deb atashgan). Imperator turkiylar bilan g`arbiy-siyosiy, savdo shartnomasiga kelishib oldi. Yustin II javob tarzida Zemarx boshchiligidagi elchilarini ularga qo`shib jo`natdi. Zemarx Oltintog` etagidagi xoqon o`rdasida qabul qilinadi. O`zaro suhbatdan so`ng Vizantiya bilan ipak savdosi, Eronga qarshikurashish xususida kelishib olindi. Keyinchalik boshqa bir qator elchilar guruh`i ham almashindi. Garchi ovarlar tufayli Vizantiya bilan munosabatlar bir oz yomonlashsada, lekin Vizantiya va xazarlar turkiylarga Eronga qarshi harakatlarda ko`mak berib turadilar. Eronga o`zaro munosabatlarni keskinlashtirmaslik borasida yuborilgan ikki marotaba elchilar tashrifi o`z natijasini bergani yo`q.

Tinch okeani soxilidan to qora dengiz soqiligacha cho`zilgan bu ulkan davlat Eronga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. Istemi Xusrav I Anushervon

qo`shinlarini tor-mor qilib Eronning shimoliga bostirib kiradi. Turkiylar eftalitlar erlarining Eronga o`tib qolgan eolarini yana o`z ho`liga qaytarib oladilar. Eron tinchlik sulhiga kelishib har yili 40.000 Vizantiya tillasi to`lash majburiyatini oladi. Undan so`ng Eron bilan Vizantiya o`rtasida ham urush boshlanib ketib, sosoniylar davlati juda nochor ahvolga tushib qoladi.

576 yili Muqan xoqon va Istemi yabg`ularni vafsxgidan so`ng Turkiy xoqonlikning ta'siri ancha zaiflasha boshlaydi. Eron sarkardasi Baxrom Chubin turkiylarning Chur Baha xoqon ko`mondonligidagi 300.000 kishilik qo`shinini tor-mor keltiradi. Chur Baha jangda xalok bo`ldi. Baxrom Chubin Buxoro yaqinidagi Poykand shahriga bostirib kiryb, xoqonning o`g`li Barmuda Teginni asirga oladi va xoqon xazinasini Eron shohiga yuboradi.

Muqan xoqon vafotidan (576 y.) so`ng taxtga uning ukasi Arslon To`ba o`tirdi. Arslon To`ba ho`lida 8 ta viloyat jam etilgan bo`lib, o`z vaqtida ular o`zaro bir-

birlari bilan chiqisha olmas edilar. VI asrning ikkinchi yarmiga kelib turkiy xoqonlari va shahzodalari o`rtasida toj-taxt uchun goh oshkora goh zimdan kurash ketayotgan, iqtisodiy tanazzul boshlanayotgan bir paytda turkiy shahzoda Abruy boshchiligidagi xalq harakati bo`lib o`tdi. Abruy harakati to`g`risida to`liq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Xususan Abdurahmon Muhammad Nishopuriyning (XI asr) «Xazinat-al-ulum» asaridagi bu masalaga bag`ishlangan parcha Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» asariga kiritilgan. Uning ma'lumotiga ko`ra Abruyning qarorgohi Poykandda bo`lib, u boy zodagonlar va savdogarlar ustidan qattiq nazorat o`rnatgan. Bunga chiday olmagan zodagonlar Turkiston tomonga yo`l olishgan. Abruy atrofida esa qashshoq dehqonlar gurug`dari yiqilisha borgan.

Zodagonlar Turkiston tomonda o`z rahbarlari hamuk nomiga bag`ishlab hamukat shahrini quradilar va turkiy xoqon qora Churindan yordam so`raydilar. Xoqon o`z o`g`li Shiri-Kishvarni isyonchilar ustiga yuborib, bu harakatni shavqatsiz bostiradi. Shiri-Kishvar Abruyi tutib uni qizil asalari to`la qopga tiqib o`ldirishni buyuradi va o`zi Buxoro vohasining noibi bo`lib, qochib ketgan zodagonlarni orqaga qaytarish choralarini ko`rgan.



O`zaro muttasil urushlar, taxt talashishlar mamlakatni parchalanib ketish, ma'naviy-iqtisodiy inqiroz holatiga olib keldi. qora Churin qarib qolgan vaqtida taxminan 600-yillarga kelib o`zini «xoqon» deb e'lon qiladi. qora Churin Bugu xoqon (qaxramon xoqon) degan nomni olgan edi. Xoqonlikdagi og`ir vaziyatdan foydalangan Xitoy imperatori ichki nizolar keltirib chiqarishga harakat qildi. Turkiy sarkardalaridan biri Jangar xitoyliklarga sotilib, o`z kishilari bilan xoqonga suiqasd uyushtirdi. Lekin maqsadini amalga oshirolmay 5 ta kishisi bilan zo`rg`a Xitoy imperatori huzuriga qochib o`tdi. Imperator Yan Szyan uni yaxshi kutib olib, xoqonlikka da'vogar shaxs, deb e'lon qildi. Xoqonlik ichida nizo-fitnalar Jangar kishilari tomonidan avj oldirilib, oxir oqibatda xoqonga qarshi aholi isyonigacha vaziyat etib keldi. qora Churin 603 yilda Tibetga chekingan vak`ida Jangar kishilari tomonidan o`ldirildi. Jangar xoqonlikning Sharqiy qismini o`z qo`liga olib, butunlay Xitoyning ta'sir doirasidagi kishiga aylandi. Xoqonlikning sharqiy qismi o`z mustaqilligini shu tariqa yo`qotdi. 582-603 yillardagi o`zaro urushlardan so`ng 603 yil xoqonlik to`la mustaqil 2 qismga: Sharqiy va g`arbiy qismlarga ajraldi. Ettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryolari bo`yidagi erlar, Urta Osiyoning kichik yarim mustaqil davlatlari g`arbiy xoqonlik tarkibiga kirardi.

G`arbiy xoqonlikdagi yozgi qarorgoh Isfijob yaqinidagi Mingbuloqsa, qishgisi Suyob shahrida edi. Suyobning Sharqiy tomonida dulu qabilasining besh o`q bo`dul ittifoqi, g`arbida esa nushibi qabilasining besh o`q el ittifoqining erlari joylashgan edi. g`arbiy xoqonlik ijtimoiy-iqgisodiy, madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutlaqo ajralib turar edi. Sharqiy xoqonlikdagi aholi asosan ko`chmanchi chorvadorlardan iborat bo`lsa, g`arbiy xoqonlik aholisining katta qismi esa o`troq dehqonchilik, xunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg`ul edi. Er egaligi munosabatlari rivojlanayotgan g`arbiy xoqonlikning ijtimoiy tarkibi ham, siyosiy boshqaruvi ham ancha-muncha murakkab edi. Yarim asrlik hukmronlik jarayonida turkiy aholining bir qismi o`troqlashadi, qolganlari erli chorvadorlar bilan qorishib ketishadi. O`troq hayotning an'anaviy ma'muriy udumlari ta'sirida boshqaruv tartiblari asta-sekin o`zgarib, turkiylarning ijtimoiy va

siyosiy mavqei mustahkamlanib brradi. Turkiy aholi siyosiy hayotda faol qatnashib, O`rta Osiyo o`sha davr siyosatining hamma jabhalarida teng qatnasha boshlaydilar.

Xoqon Sheguy vafotidan keyin (618 y.) hokimiyatga kelgan xoqon To`n yabg`u (To`n shoh) davrida g`arbiy

xoqonlik yana kuchayadi. Uning chegaralari Oltoydan to hind daryosi bo`yigacha cho`zilib ketdi. Uning qo`lidagi ulkan hokimiyat tartiblari isloh etildi. Mahalliy sulolalar hokimlari bilan bevosita bog`lanish, ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga «yabg`u» unvonlari beriladi. Ular o`z vak`ida xoqonning noiblariga aylanadilar. Turkiylar «Tudunlar» deb yuritilgan o`z vakillarini yarim mustaqil hokimliklarga yuborib, siyosiy nazorat va boj soliqini izga tushirish ishlarini amalga oshirdilar. Shu bilan birga xoqon diplomatik tarzda ham ish tutar edi. Masalan, u Samarqand xrkimi va qashqar xokimlari bilan quda-andachilik ipini bog`lab, ular bilan munosabatni yaxshiladi.

To`n yabg`u xoqon davrida O`rta Osiyoning ba'zi bo`ysunmas hisoblangan o`lkalari (xususan, Toharistrn) ham egallanib, sosoniylar O`rta Osiyoning janubi va xrzirgi Afg`oniston erlaridan siqib chiqarildi. Xitoy va boshqa davlatlar bilan aloqalar tiklandi. To`n yabg`u xoqon vafotidan (630 y.) so`ng dulu va nushibi (dulu qabilasi ittifoqi Ettisuvda, nushibi qabilasi ittifoqi g`arbiy Jung`oriyada edi.) qabilalari o`rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanib, ketdi. Xoqonlik zaiflashib, bir necha qismlarga bo`linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo`shinlari 657-659 yillarda Ettisuvga bostirib kirdilar. Xitoy bosqinchilariga qarshiozodlik kurashlari boshlanib ketdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga borib xoqonlik o`z mustaqilligini tiklab, Xitoy gumashtasi bo`lgan Xusrav Bo`rishodni mamlakatdan quvib chiqaradi va Toshkent vohasidan Turfongacha dulu qabila ittifoqidagi turkashlar hukmronligi o`rnatiladi.

Butun saltanat ustidan oliy hukmronlikni xoqon olib borgan. Bu lavozim merosiy bo`lgan. Xitoy manbalariga ko`ra ota doimo o`z o`g`liga taxtni qoldiravermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlariga qoldirishi lozim bo`lgan. Bundan tashqari, shunday hollar ham bo`lganki, taxt sohibini «urug`

oqsoqollari» tayinlagan. Xitoy manbalariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazganlar, ya'ni, amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi bo'ylab 9 marotaba aylatstirganlar, ishtirokchilar ularni qutlab turgan. Keyin xonni otga o'tqazib, bo'yniga Ipak mato bog'laganlar. Keyin undan so'raganlar: «Siz necha yil xon bo'lmoqchisiz? U necha yil xon bo'lishini aytgan, shu muddat tugagandan keyin taxtdan ketgan. Xoqondan keyingi shaxs Yabg'u (bahodir) davlatdagi birinchi amaldor (vazir) vazifasida bo'lgan. (Masalan, Istemi yabg'u). Ammo yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Taxt merosxo'ri Tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Tegin taxtga da'vogar shaxs bo'lgan. Shod unvoni tuman va viloyat xokimligidagi shahzodalarga berilgan. Shahzodalar bilan qondosh bo'lmasa, unday odamga shod unvoni berilmagan. Xitoy manbalarining birida shunday deyiladi: «Oliy martabalar orasida eng ulug'i Shexu (Jabg'u, Yabg'u), keyin Dele (Tegin), uchinchi esa Silifa, to'rtinchisi Tumaofa, (qolgan) kichikroq darajasidagi mansablarda 20 kishi band; ularnmng hammalari mansablari merosiydir... qo'riqchilarni esa Fuli (ya'ni bo'ri) deb ataydilar».

Tudun upvoni hukmdorning joylardagi noibi (nazoratchisi) ga berilgan. Ular mahalliy hokimlar siyosatini, boj-soliq ishlarini nazorat qilganlar. Shod unvonidagi kishi hukmdorning o'ng tomonidan joy olgan.

Chorvador turkiy aholida urug'-jamoachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug' jamoalarining negizi katta oilalardan iborat edi. Bunday oilalarda uy qullari ham mavjud bo'lar edi. qullarning ko'payishi bilan tabaqalanish munosabatlari tarkib topa boshlagan. Lekin qulchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmadi. Ko'pincha janglarda asllar qul qilib olib ketilar edi. Lekin qul ayollardan og'ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro'zhor ishlarida ishlatilinar edi. qul erkakmi, ayolmi bari bir, imkon topishi bilan qochib

ketavergan. qochgan qul ta'qib qilinmagan. Ular uchun hech kim tovon to'lamagan.

Turkiy ko'chmanchilarning asosiy qismi kambag'al chorvador va ovchilardan iborat edi. Bunday xalq ommasini bo'dun yoki qora bo'dui deb atashgan. Mamlakat bo'dunlar yashaydigan ellarga bo'lingan. Xoqonlikning markaziy

boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy-davlat tadbirlari (saltanat osoyishtaligini saqlash, davlat hududini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, dipdomatik munosabatlar va hokazo) bilan mashg'ul bo'lib joylardagi mahalliy ishlarga ma'lum darajada erkinlik yo'lga qo'yilgan. Shuning uchun xam Farg'ona, Sug'd, Shosh, Tohariston, Xorazm va boshqa joylarda boshqaruv ishi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Xitoy manbalariga ko'ra Sug'dda kelib chiqishi asli yuechjilardan bo'lmish Kan sulolasining mavqei kuchli bo'lib, Sug'd hukmdori ixshid unvoniga, tobe hokimliklar ham o'z unvonlariga ega bo'lganlar (masalan, Kesh hukmdori ixrid unvoniga ega bo'lgan).

Konunchilik, ijtimoiy hayotda u yoki bu masalalar-ni hal etish uchun «turkiy tuzuklari» yoki «Turolari» bo'lgan. Xitoy tarixchisi shunday tuzuklardan biri Sug'ddagi ibodatxonalardan birida saklanishini yoza-di. qonunlarga ko'ra, eng og'ir gunoh qilgan odam urug'-aymog'i bilan yo'q qilib yuborilgan. qolgan jazolar o'lim va turli mikdordagi tovon to'lash usullari bo'l-gan. (Masalan, birovni o'ldirsa, buzuvchilik qilsa, ot o'g'irlasa, o'lim jazosi, birovning mol-mulkini o'g'irlasa yoki kishiga lat etkazsa tovon to'lagan va hokazo).

Dehqonlar mavjud suv resurslari xamda lalmikor erlar imkoniyatlaridan foydalanib, asosan don ekinlari hamda qovun, tarvuz, beda, uzumchilik, paxtachilik sohalaridan yuqori hosil etishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog'-rog'lar etishtirishga aloxida ahamiyat berilgan, manba tili bilan aytganda, «mevali daraxtlar savlat to'kib turgan». Chunonchi, ajnabiy-larni Samarqandning «tilla shaftolisi» lol qoldirgani ma'lum. Shahar aholisi asosan x^narmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko'lami va sifati o'zidan keyingi uch tarmoq hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turtki bo'ladi. Shuning uchun bu vaqtda metallsozlik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik, ko'nchilik keng rivoj topgan, hunarmandchilik rivojiga turkiy aholi katta ta'sir ko'rsatdilar. Chunki ularda qadimdan ko'pchilik kasb-hunarlar juda rivojlangan edi. Turkiylar sarrojlik, metall qazib olish va undan qurol-yarog` yasashda ayniqsa mohir edilar. Turkiylar yasagan qurol-yarog`, zebu-ziynat buyumlari xilma-xilligi va pishikushgi bilan

ajralib turgan. Konchilik faoliyati ham shu paytda ancha rivojlangan. Oltin, temir, kumush, qo`rg`oshin, mis, margimush, tuzning bir necha xili, qimmatbaho toshlar, turli ma'danlar Sug`d, Shosh, Farg`ona, qashqar, Tohariston kabi viloyatlarda qazib olishganligi manbalarda aniq ko`rsatilgan.

## XULOSA

Turkiy xoqonlik ulkan hudud ichida zarur tinchlikni ta'minlaganligi natijasida «Buyuk Ipak yo`li» samarali ishlashda davom etdi. O`lkaning asosiy savdo hamkorlari Eron, Xitoy, Hindiston va Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga to`qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar va ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg`umoqlar, bir necha xil tuz, sharob, bog`dorchilik maxsulotlari, qazilma boylik va hokazolar olib borilgan. Ayniqsa Sug`d savdogarlarining mavqei kuchli bo`lgan. Shu ma'noda xitoylik muallifning quyidagi guvoxligi e'tiborga sazovordir. «(Sug`diyonalik) erkaklar yigirma yoshga to`lishlari bilan qo`shni mamlakatga oshiqadilar va (savdo-sotiqda) qaerda (qulaylik) va manfaat bo`lsa (albatta) u erga qadam ranjida etadilar». O`rta Osiyoning shu davrdagi Marv, Poykand, Buxoro, Samarqand, Shosh, Isfijob, Suyob kabi shaharlari savdo-sotiqning markazlari edi.

Xitoy bilan savdo munosabatlari ayniqsa, rivojlanib, 627-647 yillar mobaynida Xitoyga 9 marotaba savdo elchilari yuborildi. O`rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatlar bo`lib, Buxoroda buxorxudotlar, Xorazmda xorazmshoxlar, Shosh va Ilokda bo`dun va dehqonlar, Farg`onada ixshidlar xukmronlik qilishgan. Ularning xammasi Turkiy xoqonlikka qaram bo`lsa-da, amalda yarim mustaqil edilar.

Turkiylarning dini xaqida «Vey-shu» va «Suy-shu» Xitoy yilnomalarida qayd etilgan. Unda turkiylar dini, odatlari haqida shunday ma'lumotlar bor: 1) xoqon qarorgohiga Sharq tomonidan kiritilgan, bu bilan kun chiqish tarafga hurmat ma'nosi ifodadangan, ayni paytda quyoshga sig`inishni xam bildirgan. 2) xar yili xoqon o`z amaldorlari bilan maxsus g`orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan. 3) har 5-marotaba oy chiqishida va o`sha oyning o`rtasida xoqon yaqinlarini yig`ib, daryo bo`yiga borgan, osmon ruhi (tangri)ga qurbonlik keltirgan-lar. qabilalar o`rtasida ham turli xudolarga e'tiqod qilish bo`lgan. Tangri (osman ruhi) barcha qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo`lgan. Unga doimiy qurbonliklar keltirganlar. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonganlar. Biror kishi qazo qilsa uning yoniga boshqa kishilar, buyumlarni ham qo`shib



ko`mganlar. Masalan, 576 yil Istemi-yabg`u vafot etganida u bilan birga 4 ta g`arbiy asir o`ldirishshb ko`milgan. Muqanxon vafot etganida unga oxiratda xizmat qilish uchun 20.000 kishi o`ldirilib, birga ko`milgan. qiyomat kunini turkiylar «qoldirilgan kun» deb ataganlar. Turkiylar qabr toshlari, ya'ni bitigtoshlar yoniga odamlarning tosh haykalchalarini qo'yishgan. Ular «balballar» deyilgan. Bu balballar o`lgan odamning ruhiga bag`ishlangan yodgorlikdir. Shamanizm o`sha davrda turkiylarning asosiy dini bo`lib, keyinchalik ular ichida buddizm, xristianlik va boshqa dinlar ham tarqalgan. Tosh bitiglarda o`lgan odamga madhiyadan tashqari, ko`plab tarixiy hodisa va voqealar ham bitilgan. Bunday bitiglar ichida eng ma'lumlari Kul tigin bitigtoshi, Bilga xoqon bitigtoshi, To`nyuquq bitigtoshi va boshqalar mashhurdir. Bular birgalikda O`rxun-Enisey yozuvlari deb ataladi. Shuningdek, qog`ozga yozilib, Xitoydan topilgan 104 satrlik «Ta'birnoma» asarida ham turkiylar xdyotining sahifalari yoritilgan.

Қадимдан Шимолий Хитойда истиқомат қилиб келган хуннлар милоддин аввалги II аср охирларида хитойлар тайзики остида ғарбга қараб чекинишга мажбур бўлдилар ва Шарқий Туркистон ҳамда Еттисув воҳасида кўчиб юрган скиф (хитой манбаларида юэчжи, антик адабиётда тохарлар номи билан машхур) ва усунь қабилаларини суриб чиқардилар.

Оқибатда юэчжи (тохар) ва усунлар Сўғдиёна ва Бактрия худудига кўчиб ўтдилар ва бу ерда саклар ва бошқа маҳаллий қабилалар билан қўшилиб, аввал Сўғд, милоднинг тахминан 128-йили Юнон-Бактрия давлатига қарам бошқа ўлкаларни ҳам то Инд дарёсигача истило қилишга муваффақ бўлдилар.

Шундай қилиб, Юнон-Бактрия давлати ўрнида юэчжилар (тохарлар) давлати ташкил топти. Бу давлат тарихда Кушонлар давлати номи билан машхурдир. Кушонлар давлатига ҳозирги Ўзбекистоннинг катта қисми, Афғонистон, Шимолий Ҳиндистон ва

Покистоннинг шимолий-ғарбий қисми қараган бўлиб айниқса Канишка ва унинг тахт вориси Хувишка ҳукмронлик қилган йиллари кучайди. Лекин милоднинг 11 асри ўрталарида бу давлатнинг ҳам инқироzi бошланди ва 1У асрга келиб майда давлатларга бўлиниб кетди.

Юртимиз ҳудудида ҳукм сурган қадимий давлатлардан яна бири Қанғ ва Фарғона (Паркана)дир.

Қанғ давлати таркибига Бухоро, Шаҳрисабз, Каттакўрғон, Тошкент вилояти ва Хоразмнинг шимолий қисми кирган. Давлат тепасида жабғу (хитой манбаларида чаову) турган.

Милоддин аввалги 11-1 асрларда Фарғонада ҳам мустақил давлат бўлган. Хитой манбаларида келтирилган маълумотларга қараганда, Фарғонада ҳунармандчилик, айниқса деҳқончилик ривож топган қадимий мамлакат бўлиб, унинг 70га яқин катта-кичик шаҳарлари Куба-Қува, Гаушан-Ўзган, Эрши – Марҳамат, Гўй-Шань –Косон ва бошқалар бўлган. Маҳаллий халқ деҳқончилик ва боғдорчилик билан шуғулланган, арпа, буғдой, шоли, беда, узум, анор, полиз экинлари ва бошқаларни етиштирган.

104-101 йиллар орасида Хитой қўшинлари Фарғонага икки марта бостириб кирдилар. Биринчи юриш 104 йили хитой қўшинларининг тор-мор келтирилиши билан тугади. Иккинчи марта 101 йили 60 000 кишилиқ хитой қўшини Фарғонанинг йирик шаҳарларидан Эршини (ҳозирги Андижон вилоятига қарашли Марҳамат қишлоғи ўрнида бўлган) қамал қилдилар. Лекин шаҳарни ола олмадилар, сулҳ тузиб ва озгина ўлпон 3000 бош от олиб қайтиб кетишга мажбур бўлдилар

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziyo. «O`zbek davlatchilik tarixi». T.: 2001y.
2. Abdullaev R. «Milliy siyosiy g`oyalar tarixidan». T.: 1991y.
3. Shoniyazov K.Sh. «O`zbek xalqlarining shakllanish jarayoni». T.:2001y.
4. Axmedov B. «Tarixdan saboqlar». T.: 1994y.
5. Axmedov B. «O`zbekiston tarixiy manbalari». T.: 2001y.
6. Sa'dullaev A.S. «Qadimgi O`zbekiston tarixiy manbalari». T.: 1996y.
7. Saidqulov T.S. «O`rta Osiyo tarixining tarix nafisligidan lavhalar». T.: O`qituvchi. 1993y.
8. Muratov A. «O`rta Osiyo hattot san`atidan». T.: 1997y.
9. Habibullayev A. «Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik». T.: 2000y.